



HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISHDA SOHAVIY XIZMATLAR VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLI

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Magistratura tinglovchisi

Nadjimitdinov Baxtiyor Raximovich

Annotatsiya

Ushbu maqola huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda sohaviy xizmatlar (ichki ishlar, prokuratura, adliya, bojxona, soliq va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar) hamda fuqarolik jamiyati institutlari (mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari, kasaba uyushmalari, ota-onalar qo'mitalari va boshqalar)ning rolini tahlil qiladi. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa meyoriy hujjatlarga asoslanib, davlat organlarining huquqiy tartibotni ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, sabab va sharoitlarini bartaraf etishdagi asosiy vazifalari ko'rib chiqiladi. Fuqarolik jamiyati institutlari esa jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, huquqiy ma'rifatni oshirish, ijtimoiy sheriklik va mahalliy darajada profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish orqali muhim hissa qo'shadi. Maqolada ikki tomonning o'zaro hamkorligining samaradorligini oshirish yo'llari, mavjud muammolar va ularning yechimlari taklif etiladi. Tadqiqot natijalari huquqbuzarliklar

Kalit so'zlar: Huquqbuzarliklar profilaktikasi, sohaviy xizmatlar, fuqarolik jamiyati institutlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jamoatchilik nazorati, huquqiy ma'rifat, ijtimoiy sheriklik, mahalla instituti, huquqbuzarliklarning oldini olish, davlat va jamiyat hamkorligi.

O'tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash,



huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo'g'inini rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar qilindi. Jumladan, ichki ishlar organlari samarali faoliyat olib borishi uchun bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar imzoladi. Buning yaqqol misoli sifatida 2016 yil 16 sentabrda O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni[1] qabul qilindi.

Mazkur qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining faoliyatini tartibga solishdan iborat bo'lib, unda qonuniylik, yagonalik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda mazkur huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish, ochiqlik va shaffoflik ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplari ekanligi mustahkamlab qo'yildi.

Shu bilan bir qatorda qonunda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasini ta'minlashdan iborat ekanligi belgilab berildi.

Qonunning ahamiyatli jihatlaridan yana biri shundaki, unda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyat yo'nalishlari va prinsiplari talablaridan kelib chiqqan holda ichki ishlar organlari tomonidan ayrim majburlov choralari, shuningdek uning xodimlari tomonidan jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o'qotar qurolni qo'llashning asoslari va tartibi hamda xodimlarga nisbatan qo'yiladigan talab va shartlar aniq belgilab berilgan.

Ichki ishlar organlari tizimidagi amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning mantiqiy davomi sifatida 2017 yil 10 apreldagi "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5005-son Farmoni[2], 2017 yil 29 noyabrdagi "Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil



etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3413-son Qarorlari[3] asosida ichki ishlar organlari faoliyatida muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martda "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son Farmoni[4] va mazkur Farmonga muvofiq, 2021 yil 2 aprelda "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son Qarori[5], 2021 yil 15 aprelda "Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5076-son Qarori[6]lari qabul qilindi.

Davlat rahbari tomonidan qabul qilingan mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ichki ishlar organlarining faoliyatini takomillashtirish, uni tartibga solish, huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish kabi bir qator vazifalar belgilangan. Jumladan, Prezidentimizning PF-6196-son Farmonida ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizmlari belgilab berilgan bo'lib, unda vazirlikning bir qator boshqarmalari negizida depatramentlar tashkil etildi. Unga muvofiq:

- Jinoyat qidiruv bosh boshqarmasi, Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bosh boshqarmasi, Tezkor-qidiruv hamkorligi boshqarmasini o'z ichiga oladigan Tezkor-qidiruv departamenti;

- Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi, Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Probatsiya xizmatini o'z ichiga oladigan Jamoat xavfsizligi departamenti;



– Transportda xavfsizlikni ta'minlash bosh boshqarmasi, Xavfsiz turizmni ta'minlashni muvofiqlashtirish boshqarmasini o'z ichiga oladigan Transport va turizm ob'ektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti;

– Kadrlar bosh boshqarmasi, Ma'naviy-ma'rifiy ishlar boshqarmasi, kasbiy tayyorgarlik boshqarmasini o'z ichiga oladigan Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti;

– Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi negizida Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamentlari tashkil etildi.

Albatta amalga oshirilgan islohotlar negizida mazkur departamentlarning tashkil etilishi ichki ishlar organlari qonun ustuvorligi va inson huquqlarining himoya qilinishi asosiy mezon sifatida e'tirof etilishi bilan belgilanadi.

Fikrimizcha, qonun ustuvorligi xalq hokimiyati va inson huquqlari tushunchalari bilan bevosita bog'liq prinsipdir. Chunki xalq hokimiyati deganda fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonida bevosita yoki bilvosita ishtirok etish huquqi tushuniladi. Shu ma'noda xalq irodasining ifodasi bo'lgan, fuqarolarning parlamentga saylab qo'ygan vakillari orqali yoki o'zlari tomonidan bevosita referendum orqali qabul qilingan qonunlar xalq hokimiyatchiligining natijasi, majoziy qilib aytganda, mevasi hisoblanadi. Inson huquq va erkinliklari qonunlar vositasida hayotga joriy etiladi, aslida qonunlarning pirovard maqsadi ham inson, uning huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iboratdir[7].

Qonun ustuvorligi quyidagi uchala holat bo'lgandagina, o'zining to'liq ifodasini topadi.

Birinchidan, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-hujjatlar adolatga, inson huquqi va manfaatlariga asoslangan bo'lishi shart.

Ikkinchidan, Konstitutsiya, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolar tomonidan aniq bajarilishi zarur.



Uchinchidan, barcha normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya va qonunlarga mos bo'lishi - qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy mexanizmlarini tashkil etadi. Demokratik jamiyatning muhim tamoyili bo'lgan qonun ustuvorligi mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati qurishning asosidir. Albatta, demokratik jamiyat qurish faqat qonun ustuvorligi bilan cheklanib qolmaydi, balki xalqimizning milliy-ma'naviy negizlariga tayanishni taqozo etadi va zaruriy sharti qilib qo'yadi.

O'tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo'g'inini rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar qilindi.

O'zbekistonda oliy qadriyat deb tan olingan inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari ta'minlanishini yanada mustahkam kafolatlash, ularning orzu-istaklarini ro'yobga chiqarish borasida fuqarolik jamiyati institutlarining ham o'rni beqiyos[8].

Mustaqillik, Konstitutsiya, fuqarolik jamiyati va demokratiya tushunchalari o'rtasidagi uzviy aloqadorlik muhim ahamiyatga ega. Zero, mustaqil mamlakatni demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati institutlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bois yurtimizda istiqlolning ilk kunlaridanoq demokratik yangilanish, erkin fuqarolik jamiyatini qurish yo'li tanlab olindi. Binobarin, bu yo'lni har kim o'ziga xos yo'sinda bosib o'tadi. O'zbekiston demokratiyaning fundamental tamoyillariga asoslangan, ularga qat'iy rioya etgan holda, ayni paytda o'z harakatlarini xalqimizning tafakkuri, necha ming yillik turmush tarzi bilan muvofiq ravishda olib bormoqda[9].

Ma'lumki, fuqarolik jamiyatining asosini uning institutlari tashkil etadi. Shu o'rinda savol tug'iladi: fuqarolik jamiyati institutlari nima va ular jumlasiga qanday tashkilotlar kiradi?



Fuqarolik jamiyati institutlari – odamlarning fuqarolik jamiyatiga xos ijtimoiy munosabatlarini shakllantirish, shunday jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi qadriyatlar, qoidalar va xulq-atvor normalari asosida me'yorlangan dunyoqarash, ong, madaniyat, ma'naviy-ahloqiy muhitni qaror toptirish, turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalash, jamiyatni demokratik tarzda tashkillashtirish funksiyalarini bajarishga yo'naltirilgan mustaqil ijtimoiy uyushmalar yig'indisidir.

Birinchidan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mahallalar, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalari va jamoat fondlari, nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolik jamiyatining nafaqat asosini tashkil etadigan, balki mazmun-mohiyatini ham belgilab beradigan fuqarolik institutlari sirasiga kiradi.

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari maqsad va vazifalarining asosiy yo'nalishi mamlakatimizda demokratik qadriyatlar va tamoyillar, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Fuqarolik jamiyati institutlari, birinchi navbatda, aholining ijtimoiy faolligini oshirishda, milliy o'zlikni anglashda, jamiyat a'zolarining siyosiy madaniyati va ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishda ko'maklashmog'i zarur.

Uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida demokratik qadriyatlar, inson huquqlari va erkinliklari, kishilarning qonuniy manfaatlari himoyasi alohida ustuvor ahamiyat kasb etishi shart. Bizning fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishdan maqsadimiz, avvalo, kishilarimiz ongiga demokratik qadriyatlarni va ko'nikmalarni izchillik bilan singdirib borishdir.

Buning zahirida o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va qobiliyatiga tayanib yashaydigan, atrofida ro'y berayotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabatda bo'ladigan, shu bilan birga, o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan sa'y-harakatlar mujassamdir.



To'rtinchidan, Asosiy Qonunimizda alohida, XIII bob va 7 ta modda bevosita jamoat birlashmalarining huquq va majburiyatlariga bag'ishlaganini ta'kidlash joiz. Xususan, "Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi" (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 58-modda).

Beshinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nodavlat va notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomi mustaxkamlangan bo'lib, 56-moddasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining

34-moddasida "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar" kabi fuqarolarning jamiyat institutlarida ishtirok etishini kafolatlaydigan huquqiy asoslar e'tirof etilgan[10].

Har qanday davlat uni qo'llab-quvvatlaydigan va faoliyat yuritishda qatnashadigan fuqarolarning, demakki, ular birikkan jamoat tashkilotlarining faolligi bilan kuchlidir. Davlat o'z faoliyatini bajarishda turli-tuman sinfiy, guruhiiy va boshqa har xil ijtimoiy manfaatlarini ifoda etadigan nodavlat jamoat tashkilotlarini qo'llab-



quvvatlash, umuminsoniy kadriyatlarga tayanib ish tutsa, bunday davlat demokratik huquqiy davlat bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 1991 yilda qabul qilingan “O‘zbekistonda jamoat birlashmalari to‘g‘risida” gi qonunda va 1999 yilda kabul qilingan “Nodavlat, notijorat tashkilotlari to‘g‘risida” gi qonunda jamoat birlashmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari tushunchasi, ularning maqsadi, turlari ko‘rsatilgan. Bu qonunga asosan tijorat maqsadlarini ko‘zlaydigan yoki boshqa korxonalar va tashkilotlarning foyda undirib olishga ko‘maklashadigan kooperativlar – jamoat birlashmalari va nodavlat, notijorat tashkilotlari hisoblanmaydi.

Jamoat birlashmalari to‘g‘risidagi qonun ularga qator huquqlar beradi. Masalan, ular o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni erkin tarqatish, davlat hokimiyati organi va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining qarorlarini ishlab chiqishda katnashishlari, noshirlik faoliyatini amalga oshirishlari, o‘z a‘zolari va ishtirokchilarining qonuniy manfaatlarini himoya qilishlari mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, jamoat birlashmalari davlat hokimiyat organlarining funksiyasini amalga oshirishda ularga ko‘maklashadilar.

Jamoat birlashmalari – davlatdan mustaqil bo‘lgan, alohida faoliyat yuritadigan va ayni vaqtda, davlat institutlariga ta’sir o‘tkaza oladigan, davlatning ijtimoiy hayotiga, shuningdek, fuqarolarning shaxsiy hayotiga asossiz aralashuvidan muhofaza qilishga yo‘naltirilgan tashkilotdir.

Jamoat birlashmalariga: siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar, faxriylar va nogironlarning tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma’rifiy, jismoniy tarbiya, sport va boshqa ko‘ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, jamg‘armalar, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari kiradi.

O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risidagi konunning 1-moddasiga asosan, o‘z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy



manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir.

O'zbekistonda olib borilayotgan siyosat jamoat birlashmalariga katta mas'uliyat yuklaydi. Bunday mas'uliyatning asosiy negizi har qanday jamoat birlashmasi oldiga qo'yilgan yagona maqsadni ya'ni bozor munosabatlariga o'tish jarayonida har bir fuqaroning ijtimoiy himoyalangan bo'lishi, ularni davlat va jamiyatni boshqarishda ongli ravishda va faol ishtirok etishini ta'minlashdan iborat.

Jamoat birlashmalari respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarni o'z a'zolari ishtirokida tahlil qilishlari va ularga nisbatan o'zlarining fikrlarini bildirishlari islohotlar natijasida o'z oldilarida turgan vazifalarni aniqlab olishlari hamda barcha a'zolari ularni bajarishga jalb etishlari lozim. Bu esa o'z navbatida, O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida davlatning bir qator funksiyalarini jamoat birlashmalariga o'tish imkoniyatini beradi, O'zbekistonning yuksak rivojlanishi, har bir fuqaroning tinch-totuv va farovon hayot kechirishi uchun xizmat qiladi.

Jamoat birlashmalarining davlat hokimiyatini amalga oshirishdagi ishtiroki davlat organlari bilan yaqin hamkorlik qilish asosida amalga oshadi. Shu munosabat bilan partiyalar aholi o'rtasida obro'-e'tibor qozonish maqsadida izchil ish olib borish, siyosiy tajriba orttirish, siyosiy yetuklikka intilish va eng muhimi moliyaviy mustaqillikka erishish, jamiyatda o'z o'rnini topish va o'zining doimiy saylovchilariga tayanish uchun faol harakat qilish kerak. Dasturi va yo'nalishlaridan qat'iy nazar, shak-shubhasiz barcha partiyalarimiz mana shunday yo'lni bosib o'tishi muhim ahamiyatga ega.

Fikrimizcha, ichki ishlar organlari va fuqarolik jamiyati institutlarini takomillashtirish sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ichki ishlar organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining samarali faoliyat olib borishiga xizmat qiladi.



Shu bilan birga ichki ishlar organlarining kotibiyati bilan kelib tushgan xat-xabarlar, yozma shakldagi murojaatlarni olish, o'z navbatida yozishmalarni yuborishda, "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish Markazlari" bilan qarovsiz, nazoratsiz va boshqa toifadagi voyaga yetmaganlarni markazga joylashtirish bo'yicha va ularni turli salbiy ta'sirlardan asrash, huquqbuzarliklar sodir etishini oldini olishda, "Aniq yashash va ish joyiga ega bo'lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish Markazlari" bilan shaxsi nomalum bo'lganlarni shaxsini aniqlash, qidiruvdagi yoki jinoyat sodir etib yashiringanlarni ushlash choralari ko'radi, "Maxsus qabulxonalar" bilan ma'muriy qamoq jazosiga tortilgan shaxslarni saqlash va ular bilan yakka tartibdagi ishlarni amalga oshirish, ularning sodir etgan huquqbuzarliklarini aniqlash va bartaraf etishda, Jazoni ijro etish muassasalari bilan ilgari sudlangan shaxslar haqidagi ma'lumotlarni olishda hamda ular bilan yakka tartibdagi tarbiyaviy profilaktik ishlarni to'g'ri tashkil etishda, Tarbiya koloniyalari bilan esa jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar haqidagi ma'lumotlarni olishda, ularni turmush tarziga tayyorlash yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilashda hamkorlikdagi ishlarni amalga oshiradi.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 16 сентябр "Ички ишлар органлари тўғ'рисида"ги ЎРҚ-407-сон Қонуни / Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 38 (746)-сон, 2016 йил 26 сентябр.

2. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 15-сон, 243-модда, 37-сон, 982-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 07.06.2018 й., 06/18/5456/1316-сон; 11.12.2019 й., 06/19/5892/4134-сон; 17.03.2021 й., 06/21/6188/0216-сон.

3 Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.11.2017 й., 07/17/3413/0334-сон;



4. Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.03.2021 й., 06/21/6196/0240-сон.

5. Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 02.04.2021 й., 07/21/5050/0280-сон

6. Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 15.04.2021 й., 07/21/5076/0347-сон.

7. A.A.Nasritdinov-2025 Одам савдосига қарши кураш тенденцияси
<http://journalss.org/index.php/obr/article/download/3081/2907>

8. A.A.Nasritdinov-2025 darknet va onlayn qora bozorlarni monitoring qilish usullari <http://journalss.org/index.php/obr/article/download/3013/2845>.

9. Исамидинов С. Фирибгарлик жинояти тушунчасининг илмий-назарий ва қиёсий-ҳуқуқий таҳлили //Универсальная индексная библиотека Евразийского журнала права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 191-195.

10.Исамиддинов, С. "Фирибгарликнинг виктимологик профилактикасининг янгича механизмларини тақазо этувчи омиллар таҳлили." *Solution of social problems in management and economy* 3 (2024): 3.